

## HAYDAR XORAZMIYNING “GULSHAN UL-ASROR” DOSTONIDAGI DIDAKTIK RUHDAGI HIKOYATLAR TAHLILI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

*Mamatova Manzura Qo‘ldosh qizi*

*Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: To‘rayeva Dilnoza Nematullayevna*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” dostonining didaktik tahlili, undagi hikoyatlarning tarbiyaviy ahamiyati xususida so‘z boradi. Maqolada asar g‘oyasi va insoniylik, saxovatlilik, adolat haqida berilgan.*

**KALIT SO‘ZLAR:** “Gulshan ul-asror” dostoni, didaktik g‘oya, tasavvuf, hikoyat, mav‘iza.

O‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Haydar Xorazmiy (XIV asrning oxiri-Xorazm-XIV asrning I-yarmi) adabiyot sahnasida o‘z asarlari va she’rlari bilan iz qoldirgan. Shoir asosan Xorazmda yashagan va og‘ir hayot kechirgan, birmuncha vaqt esa Hirotda temuriylardan Umarshayxning o‘g‘li Sulton Iskandar saroyida yashaydi. Uning hayoti va ijodi haqida ko‘plab ma’lumotlar Davlatshoh Samarcandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlari hamda o‘zining “Mahzan ul-asror” dostonida berilgan. “Gulshan ul-asror” o‘zbek epik she’riyati tarixida muhim hodisa va turkiy tildagi axloqiy-falsafiy dostonchilikning yirik namunasi bo‘lib, turkiy tilning boyligi, qudrati va ko‘rkini namoyish qildi hamda o‘zbekozarbayjon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘sildi.

Haydar Xorazmiy ijodi Sulton iskandar davrida gullab yashnadi. Shoir turkiy va forsiyda she’rlar yozgan va devon tuzgan. U Nizomiy Ganjaviyning “Mahzan ul-asror” asariga “Gulshan ul-asror” nomi bilan turkiy tilda javob yozib(1409-1414), Sulton Iskandarga bag‘ishlagan.

Shu bois Nizomiyning“Maxzan ul-asror” dostoni haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tish maqsadga muvofiq. Nizomiyning mazkur dostoni falsafiy-didaktik doston bo‘lib, milodiy 1170-yili yozilgan. Bu doston Nizomiy “Xamsa”sining birinchi kitobidir. Dostonning kirish qismida hamd – Ollohning yagonaligi va ungainunojot, na’t – payg‘ambarning ta’rifi va uning me’roji, undan so‘ng yana to‘rtta na’t, Dovud o‘g‘li Malik Faxriddin Bahrom shohning ta’rifi va unga ta’zim, bu kitobning tuzilishi, so‘z fazilati haqida, nazmnning nasrdan ustunligi haqida, ko‘ngil va uning parvarishi haqida birinchi xilvat, birinchi xilvatning samarasi, ikkinchi xilvat va ikkinchi xilvatning samarasi kabi 18 bobdan iborat. Dostonning O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol qilgan tarjimasi 2264 baytni tashkil qiladi. Har ikkala

doston ham falsafiy-ta'limi mohiyat kasb etib, aruzning sari' bahrida (sarfi musaddasi matvii makshuf muftailun, muftaiiun faulun) yozilgan. Haydar Xorazmiyning dostoni Nizomiy Ganjaviy dostoniga nisbatan hajman ancha kichik bo'lib, 639 baytdan iborat, 23 bobdan tarkib topgan. Asarningdastlabki 7 fasli an'anaviy muqaddimaviy boblardir. Mazkur boblar Alloh hamdi, payg'ambar na'ti, xalifalar ta'rifi, Sulton Iskandar madhi, musannifning vasfil-holi kabi masalalarga bag'ishlangan. Doston 16 bobdan iborat. Unda mav'iza, hikoyat va maqolatla o'rin olgan.

Haydar Xorazmiy asar davomida Nizomiya bo'lgan hurmatini ko'rsatdi. Asar 3qismdan iborat: "kirish", "kitob yozilish sababi", "musannifning vasful holi". Haydar Xorazmiy asarlarining falsafiy-ta'limi mohiyati juda chuqr hisoblanadi. Xususan, uning "Savdogar va bo'z to'quvchi kampir" hikoyasi 43 baytdan iborat bo'lib, u tuzilishi, obrazi, syujeti bilan mustaqil badiy asar sanaladi. Hikoya asosida o'sha davrdagi hayotiy voqeа yotadi. Bir beva kampir ochlikdan zor qahshagan bolalarga non topish uchun ikki hafta mehnat qilib, bo'z to'qiydida savdogarga olib boradi. Savdogar kampir bo'zini yerga urib, sotib oladi. Bir xaridor esa katta haq to'lab savdogardan bo'zni sotib oladi. Buni kuzatgan donishmand haqparast chol savdogarni xijolat qilishi bilan hikoya tugaydi. Hikoyatda quyidagicha mav'iza keltirilgan:

Xayr etagina uzun tut qo'lung,  
Mo'ru malaxdin ayama sarquting.

Bu hikoyatda qalloblik, ta'magirlilik, yolg'onchilik qoralanadi. Bu odatlar yaxshilik bilan tugamasligi so'fiy chol nasihatidan ham ko'rinish turibdi. Asardagi darvesh chol juda oqil,adolatli, komillik yolda umrini qanot qilgan haqdil insondir. Haydar xorazmiy bazzozning uyalganini o'tkir kinoyalı hajv ostiga bekitadi va bu ham hikoyatning badiiy estetik ta'sirchanligini oshirgan. Bu hikoyatning yoshlar tarbiyasida ham o'rni beqiyos. Yosh avlodni shu ruhda tarbiya qilish kelajakda turli qallobliklarni oladi. Shuningdek, asar tasavvuf ta'limoti ta'sirida yozilgani undagi mulohaza va majozlardan ham ko'rinish turibdi. Asardagi hikoyatlardan yana biri "Hotam Toyi". Bunda saxovatpeshalik ulug'lanadi. Hamda nafs bilan bogliq ko'rinishlar ham mavjud. Inson qanchalik saxiy bo'lsa uning rizqi ham Alloh tomonidan shu qadar kop berilishi haqida so'z boradi.

Hikoyatda aytishicha, arab mamlakatidan kelayotgan karvon, yo'lda oziq-ovqatdan qiynalib qolmaylik, deb o'ylab, Hotam Toy xonadoniga tushdilar. Karvon orasida bir tentak odam ham bor edi. U: "Ey Hotam, noming karaming tufayli olamga mashhur bo'ldi, biz ham bugun senga mehmonmiz", - dedi. U gapini tugatmagan ham ediki,karvonning semiz tuyalaridan biri xastalanib qoldi. Odamlar haligi tentakka, sen mehmongan, tilingni tiysang, yaxshi bo'lardi, deb tanbeh berdilar. Xullas, Hotam tuyani so'yib, karvonni mehmon qildi. Erta tongda karvon yana yo'lga otlandi. Shu payt uzoqdan ot choptirib kelayotgan odamlar ko'rindi, ular bir tuyani ham olib

kelayotgan edilar. Bu tuya kechagi tuyaning aynan o‘zi edi. Karvon bu ahvolni ko‘rib, otliqlardan so‘radilar. Otliqlar shunday javob berdilar: “Kechasi Hotam tushimizga kiribdi, ko‘zлari yoshlangan. U bizga aytdiki, bugun mehmonlar kelgan edi, men ulardan bir tuya qarz olib so‘yib, ularni mehmon qildim dedi va tuyaning belgilarini so‘zladi. Hotam bizga, tezroq bo‘linglar, karvon tong otishi bilan ketadi, aynan ularning tuyasiga o‘xshaganini olib kelib, karvonga yetkazinglar, deya bizni shoshirdi. Kechagi so‘yib yegan tuyasidan ularga og‘irlik kelmasin, menga esa halol bo‘lsin, dedi”.

Bu dunyoda mol-dunyo o‘tkinchi, muhimi inson saxovatli bo‘lishi, oqibatli bo‘lishi kerak. Oxiratda unga bu dunyoda qilgan savobli ishlari yordam bera oladi. Axir bobolarimiz bir mayizni qirq kishi bo‘lib yeyishgan. Bu hikoyatda falsafiy masalalar haqida ham gap boradi. Insonlar mol-dunyo yig‘ish bilan umrini o‘tkazar ekan savob yo‘lida zakot berishni unutadilar, xuddiki begonaga zakot berish o‘lim bilan tengdek. Axir bu dunyoda hammamizdan ham yaxshilik qoladi. Inson nafsini jilovlay olmas ekan o‘z nafsiga qul bo‘ladi va unda insoniy hislatlar qabr tomon ketadi. Qachonki inson o‘z o‘zini murosa qila olgandagina nafsiga qul ham bo‘lmaydi, mol-mulkka ham o‘z ornida egalik qiladi va ko‘zi to‘q o‘tadi.

Haydar Xorazmiyning “maxzan ul-asror”ida Mahmud G‘aznaviy haqida ham hikoyat keltirilar ekan, hikoyatda shoh mahmuddan ko‘ra miskin pir ma’naviy jihatdan boy ekanligi yoritilgan. Bu hikoyatda aytishicha, Mahmud G‘aznaviy a’yonlari bilan qish kunida ovga chiqdi. Ular bir xaroba kulba qarshisidan chiqib qoldilar. Mahmud G‘aznaviy xarobaga kirib, sochlari to‘zib ketgan, nihoyatda badbashara bir pirni ko‘rdi. U Mahmudga e’tibor bermadi, “kel,o‘tir” yoki “ket” deb aytmadi. Pir ibodatini tugatgandan keyin, Mahmuddan: “Oting kim? Nima uchun bu yerga kelding? Bu yerga hech kim kelmas edi”, deb so‘radi. Mahmud o‘zini tanishtirdi. U pirga, bunday sovuq kunda bu yerda yashashingiz umringizga zomin bo‘ladi, sizga shahardan biron go‘sha topib berayin, deb aytdi. Shunda pir:

Bilki, bu yo‘l ustida o‘tguchimiz,  
Ayla kelduk, yana ketguchibiz.

deya javob berib, shohga ta’nalar qildi: “Yaratgan meni hech narsaga muhtoj qilmadi.Sen esa muhtojlikda yashaysan, men faqr-u fano davlatida boyman, agar sendan biron narsa ta’mal qilsam, sendan battar bo‘laman, undan ko‘ra, rizq ilinjida darbadar kezganim yaxshi. Qani aytchi, mabodo ajal kelib qolsa, davlatingni qaytara olasanmi yoki ajalnimi?” Shoh pirning bu gapidan qattiq xafa bo‘lib, unga, agar sening boshingga ajal kelib qolsa-chi, sen nima qilasan, deb savol berganda:

Pir tabassum qilibon urdi jo‘sh,  
To‘tisi uchtiyu qafas qoldi bo‘sh.

Bu hikoyatda kishining ichki olami go‘zal bolishi kerakligi va tashqi korinish Allohning oldida hech narsa emas ekanligi aytilgan. Pirning zohiriyl ko‘rinishi shohning ko‘nglini to‘ldirmagan bo‘lsa-da, botiniy olami uni mot qildi. Pirning

shohdan ustunligi ham uning botiniy olamining go‘zalligidadir. Uning eng yaqin hamrohi alloh ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Asar g‘oyaviy jihatdan tasavvufiy, axloqiy-didaktik asarlar sirasiga kiradi. Asardagi asosiy motiv Allohga bo‘lgan ishqdir. Haydar Xorazmiy asar yozish mobaynida xalq tili boyliklaridan keng foydalandi, maqollar va hikmatli so‘zlardan unumli foydalangan. Shoir adabiyotimizda she’riy hikoyat rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Asar falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy ta’limiy masalalarni o‘z ichiga olgan. Haydar Xorazmiy “Maxzanul-asrор”da badiiy ifoda etgan fikr- mulohazalar, asarda ilgari surilgan g‘oyalari bilan o‘z zamonasining katta bilimdoni, o ‘zbek tili ravnaqi uchun kurashgan shoir, arab, fors-tojik tillarini chuqur o ‘rgangan, yetuk ma’rifatli kishi sifatida namoyon bo‘ladi. Nafaqat o‘z zamonasida balki hozirgi davr muammolari uchun ham kerakli asar ekanligini ta’kidlash joiz.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. Haydar Xorazmiy. Gulshan ul-asror.
2. Nasimxon RAHMONOV. (2017) O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha).O‘quv qo‘llanma. - T.: “Sano-standart” nashriyoti, 556 bet.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)